


Xorazm viloyatida 2018 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligini rivojlantirish yakunlari bo‘yicha

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra Xorazm viloyatida 2018 yil yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida yalpi maxsulot ishlab chiqarish 348,3 mlrd.so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 foizga oshgan. O‘tgan 3 oy yakuni bo‘yicha dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 264,9 mlrd.so‘m bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 5,9 foizga ko‘paygan.

Viloyat bo‘yicha dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 3,8 foiz (12.8 mlrd.so‘m)ni, dehqon xo‘jaliklarida 94.1 foiz (315.3 mlrd.so‘m)ni, qishloq xo‘jaligi korxonalarida 2.1 foiz (6.9 mlrd.so‘m)ni tashkil etdi.




Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida kichik biznes sub’ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot 343,9 mlrd.so‘m bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 2,0 foizga oshgan yoki jamiga nisbatan kichik biznes sub’ektlarining ulushi 98,7 foizni tashkil etdi.

Chorvachilik. 2018 yilning yanvar-mart holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 1,0 foizga (jami 856,5 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 0,8 foizga (330,4

ming bosh), qo'y va echkilar 1,3 foizga (401,8 ming bosh), otlar 0,8 foizga (5404 bosh), parrandalar 0,4 foizga (5113,3 ming bosh) ga ko'paydi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 305599,4 mln. so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,4 foizni tashkilqildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 87,7 foizni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 32,7 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-martiga nisbatan 100,9 foizga ko'p), 190,9 ming tonna sut (102,4 foizga), 98691 ming dona tuxum (100,4 foizga) ishlab chiqarildi.



Dehqonchilik. 2018 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 29466,8 mln.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 100,6 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 4,1 fozni tashkil qildi.

Hosilni yig'ib olish. 2018 yilning yanvar - mart oylarida 921 tonna (101,2 foiz) sabzavotlar, meva va rezavorlar, 18 tonna (100,0 foiz) yig'ib olindi.

Baliq xo'jaligi. 2017 yil 1 aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda ovlangan baliq 1519,0 tonna (o'tgan yilga nisbatan 0,9 foiz) ko'paydi. Viloyatimizning fermer xo'jaliklari tomonidan 1 aprel holatiga ovlangan baliq 705,0 tonna (o'tgan yilga nisbatan 6,8 foiz)ni yoki jami ovlangan baliq miqdorining 46,4 foizini tashkil etdi.